

ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kuvatova Nafisa

*SamDChTI akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslari jarayonida interfaol metodlaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, adabiyot, metodika, didaktika, pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar, ta'lim sifati

Adabiyot fani akademik litseylarda o'qitiladigan darslardan o'zining nutq madaniyati, tarix kabi fanlariga aloqasi bilan alohida ajralib turadi. Ona tili va adabiyot faniga qiziqqan ta'lim oluvchi o'z-o'zidan badiiy adabiyotga oshno bo'ladi. Shunday ekan, bugungi kunda davlat miqyosiga ko'tarilgan kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mas'uliyati ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Fanni o'zlashtirishda turli usullarni yarata olish, pedagogik mahoratni ko'rsata bilish bu o'qituvchining jamiyat oldidagi burchi sanaladi. Hozirgi axborot maydoning kengayishi va faollashuvi zamonida soha mutaxassisi har sohada o'z faolligini ko'rsata bilishi kerak. Bu o'qituvchi har bir darsini o'ziga xos tarzda qiziqarli olib borishi, darsda yangidan yangi usul va metodlarni o'z o'rnida qo'llay bilishi, o'quvchiga munosabatini yaxshi yo'lga qo'yishi bilan belgilanadi. Yangicha usul, yangicha metod, eng avval, adabiyotda aks etishiga erishish lozim. Biz bugun sodda, o'quvchini fikrlashga, ijodiy yondashishga, shuning bilan birga o'quvchini ham hushyorlikka, ham faollikka undaydigan usullardan bir nechta haqida fikr yuritmoqchimiz. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buni biz biror mavzu negizida ko'rib o'tamiz. Masalan, akademik litseyning 2-kurs talabalariga dastur bo'yicha "Ga'fur G'ulomning "Shum bola" qissasi tahlili" mavzusida o'tilgan mavzu (Mustaqillik davri she'riyati)ni so'rash uchun "Karta" didaktik o'yinidan foydalanish mumkin. Bu didaktik o'yinlarning alohida ajralib turadigan jihati shuki, o'quvchini hushyorlikka undash bilan birga uning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Agar o'qituvchi o'quvchilarga uyda berilgan vazifaga qo'shimcha tarzda "Karta" tayyorlab kelishni aytsa, o'quvchilar, albatta, savolni yozish bilan birga o'sha savolga javobni ham bilib oladi. Savollar o'qiladi, o'quvchilar qo'lidagi muvofiq javob yozilgan karta stol ustiga tashlanadi. Kimning qo'lida karta qolib ketsa, o'quvchiga jarima ball qo'llanadi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. To'ra Sulaymon qachon tug'ilgan? J: 1934-yil

2. To'ra Sulaymonning ilk she'riy to'plami J: Istar ko'ngil
3. To'ra Sulaymonning dostonlaridan birining nomini toping? J: "Qorasoch"
4. To'ra Sulaymonning she'rlaridan birining nomi? J: Tavallo
5. Tog'ay Murodning qissasini toping J: Yulduzlar mangu yonadi
6. Gul bir yon chaman bir yon sheri muallifi J: To'ra Sulaymon
7. Grafika sherining muallifi J: Usmon Azim
8. She'rlaridan birida asr bilan vidolashgan ijodkor kim? J: Jamol Kamol

Darsning keying yangi mavzuning bayoni qismida "Terminlar so'zlaganda" metodida o'rganilayotgan mavzuga doir termin(atama)lar qayd etilgan tarqatmalar beriladi. O'qituvchi o'quvchilarni yangi mavzu bilan tanishtirayotganda ta'lim oluvchilar tarqatmadagi terminlarni o'qituvchi izohlashini diqqat bilan kuzatib, uni eslab qolishga harakat qiladilar. Bu o'yin yangi mavzularini o'zlashtirishda juda qo'l kelib, ilm oluvchining diqqatini dars jarayoniga tortishga yordam beradi. Mavzusiga doir tarqatmada aks etgan obrazlar(Shum bola, Omon, Sariboy, Yusuf kontor, Hoji bobo, masjid imomi, eshon, Sulton o'g'ri kabilar) haqidagi ma'lumotlarni xotirasida saqlab, obrazni ta'riflab berishadi. Bu metod o'quvchida tahlil qilish, fikrlashni shakllantirish uchun xizmat qiladi. . Ona tili va adabiyot fanining asosiy maqsadi o'quvchi fikr dunyoqarashiga ta'sir etibgina qolmasdan, uni chiroyli nutq egasi sifatida shakllantirishdan iborat ekan, fan o'qituvchisi yuqoridagi kabi didaktik o'yinlarni dars jarayonida keng miqyosda tashkil etib, o'z o'quvchilarini jamiyatning har sohasida faol inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilgan holda fan xonasiga kirishi zarurdir, qolaversa, bu uning vijdoniy burchi ekanligini esdan chiqarmasa bo'lgani.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Батыршина А. Р. Технология организации самостоятельной работы студентов // Высшее образование сегодня. – 2008. – № 9. – С. 82 – 84.
2. Вачков И.В. Методика преподавания психологии: Учебное пособие / И.В. Вачков. – М.: Осъ-89, 2008. – 208 с.
3. G'afur G'ulom SHUM BOLA (Qissa) Yoshlar nashriyot uyi Toshkent – 2018